

GENDER–HUQUQIY EKSPERTIZANING INSTITUTSIONAL ASOSLARI

Azimbek Azimov Azizbek o'g'li

Azimovazimjon11@gmail.com

Toshkent davlat yuridik unversiteti magistratura talabasi

***Annotatsiya.** Mazkur tezisdagi gender-huquqiy ekspertizaning institutsional asoslarining qay tartibda rivojlanishi ochib berilgan. Shuningdek, qonunchilikda gender-huquqiy ekspertizani o'tkazuvchi organlarning tashkil etilishi hamda bugungi kunda gender masalalariga oid qonunchilikda kiritilayotgan o'zgarishlar haqida ham qisqacha to'xtalib o'tilgan. Ushbu tezis davomida gender huquqiy ekspertizani amalga oshiruvchi institutlar, gender audit, gender tamoyillar amalga oshirish usullari masalasida mulohazalar yuritilgan. Bundan tashqari qonunchilikda gender-huquqiy ekspertizani faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan bir qator takliflar gender masalalari bilan shug'ullanuvchi institutlarga yo'naltirilgan.*

***Annotation.** In this thesis, the development of the institutional framework of gender legal expertise is revealed. The legislation also briefly addresses the establishment of gender-legal expertise bodies as well as the changes that are being made in legislation regarding gender issues today. During this thesis, considerations were made on the issue of institutions carrying out gender legal expertise, gender audit, methods of implementation of gender principles. In addition, a number of proposals aimed at improving the activities of gender-legal expertise in legislation are aimed at institutions dealing with gender issues.*

***Kalit so'zlari :** Gender tenglik, gender tamoyillari, gender audit, gender-huquqiy ekspertiza, institutlar tizimi, markaziy apparati, komissiya, qo'mita.*

***Keywords:** Gender equality, gender principles, gender audit, gender legal expertise, system of institutions, central apparatus, commission, committee*

KIRISH

Gender-huquqiy ekspertizaning institutsional asoslari haqida soʻz borganda, mamlakatimizda joriy etilgan “Xotin-qizlar va erkalar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari toʻgʻrisida”gi 562-sonli qonun asos sifatida koʻrsatiladi, bu holatda talqin etilishiga sabab, **“gender siyosati amalga oshirilishini taʼminlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar”**da jinslarning notengligini bartaraf etish hamda xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy yoki asos boʻladigan tengligini taʼminlash boʻyicha aniq maqsadlarga erishish uchun davlat organlari tomonidan koʻriladigan huquqiy, tashkiliy hamda institutsiyaviy xususiyatga ega chora-tadbirlar haqida soʻz boradi[1]. Bu holatdan koʻrishimiz mumkinki, genderga oid davlat siyosatini amalga oshirishda uch xil koʻrinish tilga olingan boʻlib bular: huquqiy, tashkiliy hamda institutsiyaviy chora-tadbirlardir. Dastlab biz uchun institut nima va bu qanday tizmi ekanligini anglash jamiyat hayotida oʻrni qay darajada ekanligini anglash lozimligi haqida soʻz boradi. Institutlar jamoat manfaatlarini oʻzida saqlagan holatda yillar davomida shakllanib boradi, shuningdek, institut deyilganda, ijtimoiy urf-odatlar tizmi shakllantirishdagi ushbu urf-odatlar guruhidagi ularni tasniflash uchun qoʻllaniladigan oʻgʻizaki tarzda bildiriladigan bir belgi sifatida qaraladi. Jamiyat orasida institutlarning mavjudligi aholi orasida muayyan ijtimoiy guruhlar, xalq uchun odat normalari asosida paydo boʻlgan fikrlash va amal qilishning barqaror usuli sifatida nazarda tutiladi. Misol uchun, soliq institut, oila instituti kabilar ham bunga yaqol misol boʻla oladi, mana shular orqali oila institutida oila va nikoh tuzilishi natijasida yuzaga keladigan masalalar eʼtiborga olinsa, soliq institutida esa moliyaviy huquqiy munosabatlar tilga olinadi. Ushbu paragrafda gender-huquqiy ekspertizaning institutsional asoslarini “gender tengligi”ni taʼminlashga masʼul boʻlgan tuzilmalar, tashkilotlarning shakllanishi jarayonlari hamda ularning istiqbollari haqida batafsil yoritib borish nazarda tutiladi. Shu asnosida biz gender-huquqiy ekspertizaning tashkiliy, nazariy, tarkibiy asoslarini oʻrganamiz.

Parlamentning gender masalasini Qonunchilik darajasida ilgari surishdagi roli, ayniqsa, inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasida qonun hokimiyati tomonidan

inson huquqlarini himoya qilishning maqsadga muvofiqligi qayd etilganligini hisobga olgan holda dolzarbdir[2]. Ushbu holatlarni to'liq anglagan holda mamlakatda qonun hujjatlaridan tashqari qonun osti hujjatlarini atroflicha e'tibor qaratmoq lozimdir. Shunga ko'ra idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar ko'proq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi nazarda tutilgan.

Gender tengligi asoslarini institutsiyaviy tomonlama tizimli tahlil qilsak, retrospektiv jihatidan talqin qilish gender tengligi asoslarini rivojlantirishga ko'maklashadi. Misol uchun, 1991-yilda "O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo'mitasi" faoliyati yo'lga qo'yildi. Qolaversa, mustaqillikdan 3yil o'tib Bosh vazirning aynan xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faoliyati bilan shug'ullanadigan o'rinbosari lavozimi joriy etildi va bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo'mitasi raisi, aynan, Bosh vazirning xotin-qizlarga doir masalalar bilan shug'ullanuvchi o'rinbosari etib tayinlandi. 1995-yilda xotin-qizlar ishlari bo'yicha faoliyat olib boradigan hokimlarning o'rinbosarlari lavozimlari ham joriy etildi.

Shuningdek, 2017-2021-yillarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakatlar strategiyasida aholini ijtimoiy tomonlama ko'maklashish, sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish, hamda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishga doir bir qator ishlar mujjasmalashgan, bunda ayollarning davlat boshqaruv organlari bilan munosabatlarga kirishish faolligini oshirish, davlat organlarida ishlash imkoniyatlarini yaratib berish, kasb-hunar bitiruvchi qizlarning yetuk kasb egalariga aylanishiga ko'maklashish, ularni tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlariga to'sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf qilish va eng asosiysi oila asoslarini mustahkamlash belgilangan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, 2017-2021 yillarga mo'ljallangan beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha harakatlar strategiyasi loyihasi qabul qilinishi bilan gender-huquqiy masalalar bilan shug'ullanuvchi tuzilmalar uchun institutsional o'zgarishlarning yangi davri bo'ldi hamda bir qator ma'muriy islohotlar o'tkazilinishi bilan deyarli barcha vazirlik hamda idoralar faoliyatiga aloqador tarkibiy o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Shuningdek, 2018 yil fevral oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi[3]. Ushbu Farmonga muvofiq O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ayollarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash belgilandi, bu ham tartibga solish siyosatini, shu jumladan gender-huquqiy ekspertizani anglatadi. Bu qonun loyihasi, Qonunchilik, turli darajadagi siyosiy qaror, huquqni qo'llash amaliyoti bo'lishi mumkin[4].

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi, "Tadbirkor ayol" uyushmasining Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasini tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berildi va quyidagilar uning asosiy vazifalari etib belgilandi[5]:

xotin-qizlarni va oilani har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar va oilalarga, nogironligi bo'lgan ayollarga moddiy yordam ko'rsatish;

Xotin-qizlarga oilaviy va xususiy tadbirkorlik, hunarmandchilikni tashkil etishda, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallashda ko'maklashish nazarda tutildi. Bularning barchasi ayollarga jamiyatda o'z o'rinlarini topishlari uchun qilingan sa'y harakatlardir. Ayollarning huquq va erkinliklari kamsitilishi ko'p uchrayotgan bir davrda mamlakatimizda ayollar uchun keng imtiyozlarning yaratib berilishi insonlarimizni xursand qilishi tabiiy albatta.

Undan tashqari, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi bilan birgalikda 2018-yilning 1-apreligacha fuqarolar yig'inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha har bir maslahatchisi faoliyatini tanqidiy o'rganib chiqilib uning lavozimi o'rniga ayollar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha mutaxassis lavozimi joriy etildi[6].

Xulosa

Mahallada oilaviy munosabatlarda ayollar bilan shug'ullanish jarayonlarini kuchaytirish, oilaviy jarayonlarda ayollarning haq-huquqlari kamsitilinishini oldini olishga qaratilgan ishlar jadal sur'atlarda olib borilayotganidan dalolat beradi. Bularning barchasi mamlakatda gender tenglikka amalga oshirishga qaratilgan institutsional asoslarning yaratilinishi bilan bog'liqdir. Shuni ta'kidlash joizki, davlat tomonidan gender faoliyat bilan shug'ullanuvchi turli xil komissiyalarning tuzilishi gender-huquqiy munosabatlarning institutsional mexanizmlari bilan bog'liqdir. Jumladan, dastlab *Qonunchilik palatasida oila va xotin-qizlar masalalari bo'yicha komissiya* faoliyat yuritgan bo'lsa, keyinchalik Senat tarkibida *xotin-qizlar va gender tengligi masalalari bilan faoliyat yurutuvchi qo'mita* o'z faoliyatini bosh

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MAQOLALAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-son qonuni.
2. Всеобщая декларация прав человека. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declhr.shtml
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevralda "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-son Farmoni.
4. И.И. Ларинбаева. Юридическая онтология гендерного равноправия. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.ю.н., Саратов-2004. с. 27.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevralda "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-son Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martda "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4235-son qarori.